KADEXTAR STUDIO

POST · 2027

NOMZODLAR UCHUN TEST SINOVI

IIV TEST 2027

O'TISH BALLI
94,5
189 DAN

Ichki ishlar organlariga nomzodlar test sinoviga tayyorgarlik: huquqshunoslik, eng yangi tarix va tarbiya — har savolga izoh va manba.

1	HUQUQSHUNOSLIK	93 BALL
2	ENG YANGI TARIX	63 BALL
3	TARBIYA	33 BALL

SINOV NASHRI

45 SAVOL · 1 SINOV

RASMIY TARTIB

TEST QANDAY O‘TADI

Testni Bilim va malakalarni baholash agentligi o‘tkazadi. Unga psixologik o‘rganishdan o‘tgan nomzodlar qo‘yiladi; joy va vaqt haqida agentlik uch kun oldin xabar beradi.

1	**HUQUQSHUNOSLIK** 30 ta topshiriq · har to‘g‘ri javob 3,1 ball	93 BALL
2	**ENG YANGI TARIX** 30 ta topshiriq · har to‘g‘ri javob 2,1 ball	63 BALL
3	**TARBIYA** 30 ta topshiriq · har to‘g‘ri javob 1,1 ball	33 BALL



Har fandan 30 ta topshiriq, jami 189 ball. Kamida 94,5 ball to‘plagan nomzod keyingi bosqich — jismoniy tayyorgarlikni baholashga o‘tadi.

TANLOV BOSQICHLARI

Dastlabki o‘rganish → psixologik o‘rganish → **test sinovi** → jismoniy tayyorgarlik → hujjatlar, tibbiy ko‘rik va poligraf → xizmatga qabul.

Manba: lex.uz/docs/6688256 — IIV vazirining 601-son buyrug‘i (ro‘yxat raqami 3481), Yo‘riqnoma 42–44-bandlar; BMBA xabari, 11.05.2026. Savollar — mualliflik mashqlari, rasmiy test savollari emas. 2026-yil noyabr holatiga.

HISOB-KITOB

BALL STRATEGIYASI

Fanlarning ball og‘irligi har xil — tayyorgarlik vaqtini shunga qarab taqsimlang.

UCHTA QOIDA

- **1 ta huquq javobi ≈ 3 ta tarbiya javobi.** Huquq — 3,1 ball, tarbiya — 1,1 ball.
- **Har fandan 15 tadan to‘g‘ri javob — aynan 94,5 ball.** 46,5 + 31,5 + 16,5 = 94,5: o‘tish chegarasi.
- **Eng kamida 31 ta to‘g‘ri javob kerak** — bunda deyarli hammasi huquqdan bo‘lishi shart (30 ta huquq + 1 ta tarix = 95,1 ball). Haqiqiy maqsad — uchala fandan yarmidan ko‘pi.

HUQUQDAN NECHTA TOPSANGIZ, QOLGANIDAN QANCHA KERAK

HUQUQ: TO‘G‘RI	BALL	TARIXDAN KERAK (FAQAT TARIX)	TARIXDAN KERAK (TARBIYA 15 TA BO‘LSA)
30	93,0	1	0
25	77,5	9	1
20	62,0	16	8
15	46,5	23	15
10	31,0	30+	23

Hisob: huquq 3,1 · tarix 2,1 · tarbiya 1,1 ball; o‘tish — 94,5 ball (IIV vazirining 601-son buyrug‘i, ro‘yxat raqami 3481, Yo‘riqnoma 6-bob). Jadvaldagi sonlar — eng kam talab; xavfsiz zaxira qoldiring.

YO‘RIQNOMA

KITOB BILAN QANDAY ISHLASH KERAK

1 **MAVZU BO‘YICHA O‘QING**

Savolni o‘qing, javobni yopib o‘ylang, keyin to‘g‘ri variant, izoh va manbani o‘qing.

2 **MANBAGA QARANG**

§ belgisi — aniq manba: qonun moddasi yoki darslik sahifasi. Shubha bo‘lsa, o‘zingiz oching.

3 **KONSPEKT BILAN TAKRORLANG**

Har fan boshida — eng muhim qoidalar, raqamlar va sanalar. Qavs ichidagi raqam savol kartasiga olib boradi.

4 **SINOV IMTIHONINI YECHING**

1 ta sinov — haqiqiy formatda: 30 + 30 + 30 savol. Javobni qog‘ozga yozing, keyin kalit bilan tekshiring.

5 **BALLNI HISOBLANG**

Huquq × 3,1 + tarix × 2,1 + tarbiya × 1,1. Maqsad — 94,5 dan yuqori.

BOSILADIGAN HAVOLALAR

Mundarijadagi bo‘lim, sinovdagi “javob” yozuvi va kalitdagi katak bosilsa — kerakli joyga o‘tasiz. Pastdagi “Mundarija” yozuvi mundarijaga qaytaradi.

BO‘LIMLAR

MUNDARIJA

Raqamni bossangiz — o‘sha joyga o‘tasiz.

TEST QANDAY O‘TADI 2

BALL STRATEGIYASI 3

KITOB BILAN QANDAY ISHLASH KERAK 4

HUQUQSHUNOSLIK 7

- Konspekt 8
- Davlat va huquq nazariyasi 10
- Konstitutsiya asoslari 11
- Inson huquqlari, erkinliklari va burchlari 12
- Davlat hokimiyati tizimi va saylov 13
- Ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun 14
- Ma’muriy javobgarlik 15
- Jinoyat huquqi 16
- Jinoyat protsessi asoslari 17
- Fuqarolik, oila va mehnat huquqi 18
- Profilaktika, korrupsiyaga qarshi kurash, murojaatlar 19

ENG YANGI TARIX 20

Konspekt 21
Mustaqillik va milliy davlatchilik 23
Fuqarolik jamiyati 24
Iqtisodiy islohotlar va ijtimoiy siyosat 25
Millatlararo va dinlararo munosabatlar 26
Ta’lim islohotlari va kadrlar tayyorlash 27
Ilm-fan, sport va yoshlar siyosati 28
Ma’naviy va madaniy taraqqiyot 29
Tashqi siyosat va ikki tomonlama munosabatlar 30
Ko‘p tomonlama hamkorlik 31
Yangi O‘zbekiston: 2017–2026 32

TARBIYA 33

Konspekt 34
Milliy g‘oya, qadriyatlar va Vatan 36
Oila va mahalla 38
Axloq, odob va muomala 40
Din, ma’rifat va bag‘rikenglik 42
Media va axborot madaniyati 43
Shaxs kamoloti: maqsad, iroda, kasb 44
Allomalar va ma’naviy meros 45

SINOV IMTIHONLARI 46

1-sinov 47

TO‘LIQ NASHRDA 68

1

93 BALL · 30 SAVOL

HUQUQSHUNOSLIK

Konstitutsiya, ichki ishlar organlari to‘g‘risidagi qonun, ma’muriy va jinoyat huquqi asoslari. Testdagi eng og‘ir fan: har to‘g‘ri javob — 3,1 ball.

10	200	+3,1
savol — shu sinov nashrida	savol — to‘liq nashrda	ball — har javob

HUQUQSHUNOSLIK · KONSPEKT

KONSPEKT

To‘liq nashrda har mavzu uchun konspekt bor. Bu yerda — bitta mavzu namunasi.

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

- Normativ-huquqiy hujjat umummajburiy davlat ko‘rsatmasi sifatida huquqiy normalarni belgilaydigan, o‘zgartiradigan yoki bekor qiladigan rasmiy hujjat bo‘lib, muayyan shaxsga qaratilgan bir martalik qaror bu ta’rifga kirmaydi. [H-001]
- Konstitutsiya, qonunlar (jumladan, muhim sohani kompleks tartibga soluvchi kodekslar) va Oliy Majlis palatalarining qarorlari qonun hujjatlari; Prezident farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, vazirlik buyruqlari va mahalliy organlar qarorlari qonunosti hujjatlaridir. [H-002 H-003]
- Turli yuridik kuchga ega normativ-huquqiy hujjatlar o‘rtasida tafovut bo‘lsa, yuqoriroq yuridik kuchga ega hujjat qo‘llaniladi; keyinroq qabul qilingan hujjat qoidasi faqat teng yuridik kuchga ega hujjatlarga tegishli. [H-004]
- Normativ-huquqiy hujjat, agar unda kechroq muddat ko‘rsatilmagan bo‘lsa, rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi; javobgarlikni joriy etuvchi yoki kuchaytiruvchi qonunga orqaga qaytish kuchi berilmaydi. [H-005 H-006]

- Konstitutsiya va qonunlar normalariga rasmiy sharhni Konstitutsiyaviy sud beradi; fuqarolar esa normativ-huquqiy hujjatlarni referendum yo‘li bilan bevosita qabul qilishi mumkin. [H-007 H-008]
- Davlat funksiyalari faoliyat makoniga ko‘ra ichki va tashqi funksiyalarga bo‘linadi; respublika boshqaruv shaklida hokimiyat oliy idoralari ma’lum muddatga saylanadi, konfederatsiya a’zolari esa ittifoqdan erkin chiqa oladi. [H-009 H-010 H-011]
- Huquq normasining gipotezasida amal qilish shartlari, dispozitsiyasida xulq-atvor qoidasi, sanksiyasida esa norma buzilganda qo‘llaniladigan davlat majburlov chorasi ko‘rsatiladi; huquqiy munosabat vujudga kelishi uchun yuridik fakt, ya’ni hodisa yoki harakat yuzaga kelishi lozim. [H-012 H-013]
- Huquqbuzarlikning to‘rt belgisi: ijtimoiy xavflilik, huquqqa zidlik (qonun yoki huquq normalari belgilagan majburiy talablarni buzish), aybilik va jazoga loyiqlik; ishga sababsiz kelmaslik intizomiy, qarzni vaqtida qaytarmaslik esa fuqarolik huquqbuzarligiga misoldir. [H-014 H-015]

DAVLAT VA HUQUQ NAZARIYASI

H-001

+3,1 BALL

“Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, normativ-huquqiy hujjat qanday hujjat sifatida ta’riflanadi?

A Davlat organining muayyan shaxsga nisbatan bir martalik qo‘llaniladigan qarori

B Umummajburiy huquqiy normalarni belgilash, o‘zgartirish yoki bekor qilishga qaratilgan rasmiy hujjat — TO‘G‘RI

C Fuqarolarning o‘zaro kelishuvi asosida tuzilgan, faqat shu kelishuv taraflari uchun majburiy bo‘lgan xususiy hujjat

D Davlat organining ichki ish yuritishiga doir tavsiya xarakteridagi hujjat

IZOH Normativ-huquqiy hujjat qonunchilikka muvofiq qabul qilinadigan, umummajburiy davlat ko‘rsatmasi sifatida huquqiy normalarni belgilaydigan, o‘zgartiradigan yoki bekor qiladigan rasmiy hujjatdir. Muayyan shaxsga qaratilgan bir martalik qaror bu ta’rifga kirmaydi.

§ “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-682, 20.04.2021), 3-modda

KONSTITUTSIYA ASOSLARI

H-016

+3,1 BALL

Konstitutsiyaning 1-moddasiga ko‘ra, O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan qanday davlat?

A Suveren, federativ, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat

B **Suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat** TO‘G‘RI

C Suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va diniy davlat

D Konfederativ, demokratik, huquqiy va dunyoviy davlat

IZOH 1-moddaga ko‘ra O‘zbekiston boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir. “O‘zbekiston Respublikasi” va “O‘zbekiston” nomlari bir ma’noni anglatadi.

§ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 1-modda

INSON HUQUQLARI, ERKINLIKLARI VA BURCHLARI

H-036

+3,1 BALL

Konstitutsiyaga ko‘ra, inson huquq va erkinliklari har kimga qachondan boshlab tegishli bo‘ladi?

A Pasport olgan kundan boshlab

B O‘n olti yoshga to‘lgandan boshlab

C Tug‘ilganidan boshlab TO‘G‘RI

D O‘n sakkiz yoshga to‘lgandan boshlab

IZOH 19-moddaga ko‘ra inson huquq va erkinliklari xalqaro huquq normalari va Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi, kafolatlanadi va har kimga tug‘ilganidan boshlab tegishli bo‘ladi.

§ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 19-modda

DAVLAT HOKIMIYATI TIZIMI VA SAYLOV

H-061

+3,1 BALL

Konstitutsiyaga ko‘ra, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining vakolat muddati necha yil?

A To‘rt yil

B Besh yil — TO‘G‘RI

C Olti yil

D Yetti yil

IZOH 91-moddaga ko‘ra Oliy Majlis ikki palatadan - Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat, har ikki palataning vakolat muddati besh yil. Prezident esa yetti yilga saylanadi.

§ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 91-modda

ICHKI ISHLAR ORGANLARI TO‘G‘RISIDAGI QONUN

H-101

+3,1 BALL

“Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, quyidagilardan qaysi biri ichki ishlar organlari faoliyatining asosiy prinsiplaridan biri hisoblanadi?

- **A** Ochiqlik va shaffoflik — TO‘G‘RI
- **B** Maxfiylik va yopiqlik
- **C** Markazlashmaganlik va mustaqillik
- **D** Harbiy intizom va yakkaboshchilik

IZOH Qonunning 5-moddasiga ko‘ra, asosiy prinsiplar to‘rtta: qonuniylik, yagonalik, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga rioya etish va ularni hurmat qilish, ochiqlik va shaffoflik.

§ “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-407, 16.09.2016), 5, 9-moddalar

MA' MURIY JAVOBGARLIK

H-126

+3,1 BALL

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga ko‘ra, umumiy qoidaga muvofiq shaxs necha yoshdan ma’muriy javobgarlikka tortiladi?

A O‘n to‘rt yoshdan

B O‘n besh yoshdan

C O‘n olti yoshdan TO‘G‘RI

D O‘n sakkiz yoshdan

IZOH 13-moddaga ko‘ra, huquqbuzarlik sodir etgan paytda o‘n olti yoshga to‘lgan shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortiladi; 16-18 yoshlilarga nisbatan, qoida tariqasida, bolalar masalalari bo‘yicha komissiyalar nizomidagi choralar qo‘llaniladi (14-modda).

§ Ma' muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks, 13, 14-moddalar

JINOYAT HUQUQI

H-151

+3,1 BALL

Jinoyat kodeksiga ko‘ra, jinoyat deb qanday qilmish topiladi?

A **Kodeks bilan taqiqlangan, jazo qo‘llash tahdidi bilan aybli ijtimoiy xavfli qilmish** — TO‘G‘RI

B Ma’muriy jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan har qanday g‘ayriqonuniy harakat

C Jamoatchilik tomonidan qoralangan, axloq normalariga zid bo‘lgan har qanday xatti-harakat

D Shartnoma majburiyatini bajarmaslik natijasida boshqa shaxsga mulkiy zarar yetkazish

IZOH 14-moddaga ko‘ra, Kodeks bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish (harakat yoki harakatsizlik) jazo qo‘llash tahdidi bilan jinoyat deb topiladi. Qo‘riqlanadigan obyektlarga zarar yetkazadigan yoki real zarar xavfini tug‘diradigan qilmish ijtimoiy xavfli hisoblanadi.

§ Jinoyat kodeksi, 14-modda

JINOYAT PROTSESSI ASOSLARI

H-176

+3,1 BALL

Jinoyat-protsessual kodeksiga ko‘ra, quyidagilardan qaysi biri jinoyat sodir etishda gumon qilingan shaxsni ushlab turish asoslaridan biri hisoblanadi?

A Shaxs ilgari qasddan sodir etilgan jinoyati uchun sudlangan bo‘lsa

B Uning uyida sodir etilgan jinoyatning yaqqol izlari topilsa TO‘G‘RI

C Shaxs tergovchining savollariga ko‘rsatuv berishdan bosh tortsa

D Shaxs haqida jinoyat to‘g‘risida imzosiz xabar kelib tushsa

IZOH 221-moddaga ko‘ra, ushlab turish asoslari: jinoyat ustida yoki darhol keyin qo‘lga tushish; guvohlar, jumladan jabrlanuvchilar bevosita ko‘rsatishi; o‘zida, kiyimida, yonida yoki uyida jinoyatning yaqqol izlari topilishi; gumon uchun boshqa ma’lumot bo‘lib, qochmoqchi bo‘lsa, doimiy yashash joyi bo‘lmasa yoki shaxsi aniqlanmagan bo‘lsa.

§ Jinoyat-protsessual kodeksi, 221-modda

FUQAROLIK, OILA VA MEHNAT HUQUQI

H-186

+3,1 BALL

Fuqarolik kodeksiga ko‘ra, fuqaroning huquq layoqati qachon vujudga keladi va qachon tugaydi?

A O‘n olti yoshdan vujudga keladi, pensiya yoshida tugaydi

B O‘n sakkiz yoshdan vujudga keladi, vafot etishi bilan tugaydi

C Pasport olgan paytdan vujudga keladi, fuqarolikdan chiqqanda tugaydi

D Tug‘ilgan paytdan vujudga keladi, vafot etishi bilan tugaydi — TO‘G‘RI

IZOH 17-moddaga ko‘ra, fuqarolik huquq va burchlariga ega bo‘lish layoqati (huquq layoqati) barcha fuqarolar uchun teng e’tirof etiladi, u tug‘ilgan paytdan vujudga keladi va vafot etishi bilan tugaydi. Muomala layoqati esa o‘n sakkiz yoshda to‘la vujudga keladi.

§ Fuqarolik kodeksi, 17, 22-moddalar

PROFILAKTIKA, KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH, MUROJAATLAR

H-091

+3,1 BALL

Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risidagi Qonunga ko‘ra, muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika qanday ataladi?

- **A** Viktimologik profilaktika — TO‘G‘RI
- **B** Umumiy profilaktika
- **C** Maxsus profilaktika
- **D** Yakka tartibdagi profilaktika

IZOH 43-moddaga ko‘ra shaxsning jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan faoliyat viktimologik profilaktikadir. 6-moddaga ko‘ra profilaktika turlari to‘rtta: umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik.

§ “Huquqbuzarliklar profilaktikasi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-371, 14.05.2014), 6, 43-moddalar

2

63 BALL · 30 SAVOL

ENG YANGI TARIX

Mustaqillik yillari tarixi: davlatchilik, islohotlar, ta’lim, madaniyat, tashqi siyosat va Yangi O‘zbekiston. Har to‘g‘ri javob — 2,1 ball.

10	150	+2,1
savol — shu sinov nashrida	savol — to‘liq nashrda	ball — har javob

ENG YANGI TARIX · KONSPEKT

KONSPEKT

To‘liq nashrda har mavzu uchun konspekt bor. Bu yerda — bitta mavzu namunasi.

MUSTAQILLIK VA MILLIY DAVLATCHILIK

- Darslikka ko‘ra prezidentlik instituti 1990-yil 24-martda vujudga kelgan, Mustaqillik Deklaratsiyasi 1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasida qabul qilingan, 1990-yil 1-noyabrdagi qonun bilan Ministrlar Soveti Prezident huzuridagi Vazirlar Mahkamasiga aylantirilgan. [T-001 T-009]
- O‘zbekiston SSR Prezidentining 1991-yil 25-avgustdagi farmoni bilan Respublika Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizligi komiteti O‘zbekiston SSRning qonuniy tasarrufiga olinib, ichki qo‘shinlar Prezidentga bo‘ysundirilgan; Mudofaa ishlari vazirligi 6-sentabrdagi farmon bilan tuzilgan. [T-002]
- Davlat mustaqilligi 1991-yil 31-avgustda Oliy Kengashning navbatdan tashqari VI sessiyasida e’lon qilinib, “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan, 1-sentabr esa Mustaqillik kuni deb belgilangan. [T-003]
- Darslikka ko‘ra 1991-yil 18-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingach, 1991-yil 29-dekabrda muqobillik asosida ilk umumxalq prezidentlik saylovi o‘tkazilgan va unda ikki nomzod qatnashgan. [T-004]

- 1990-yil 20-iyundagi sessiya 64 kishidan iborat Konstitutsiya loyihasini tayyorlash komissiyasini tuzgan; 1992-yil 8-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan Konstitutsiya dastlab 6 bo‘lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo‘lgan. [T-005 T-006]
- Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi qonun (407-XII) 1991-yil 18-noyabrda, Davlat gerbi to‘g‘risidagi qonun 1992-yil 2-iyulda, Davlat madhiyasi to‘g‘risidagi qonun 1992-yil 10-dekabrda qabul qilingan; madhiya varianti mualliflari shoir Abdulla Oripov va bastakor Mutal Burhonov. [T-007 T-008]
- Oliy Kengash 1992-yil 14-yanvarda sobiq SSSR harbiy qismlari va tuzilmalarini O‘zbekiston yurisdiksiyasiga olish to‘g‘risida qaror qabul qilgan, 1993-yilgi qonun bilan shu kun Vatan himoyachilari kuni deb e’lon qilingan. [T-012]
- Darslikka ko‘ra 2002-yil 27-yanvardagi referendum asosida Oliy Majlis 2005-yildan ikki palatali bo‘lib ish boshlagan; Prezidentning 2005-yil 1-avgustdagi farmoniga ko‘ra 2008-yil 1-yanvardan o‘lim jazosi bekor qilinib, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o‘tgan. [T-010 T-011]

MUSTAQILLIK VA MILLIY DAVLATCHILIK

T-001

+2,1 BALL

Darslikka ko‘ra, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashining II sessiyasida Mustaqillik Deklaratsiyasi qaysi sanada qabul qilingan?

A 1990-yil 24-martda

B **1990-yil 20-iyunda** TO‘G‘RI

C 1991-yil 31-avgustda

D 1991-yil 18-noyabrda

IZOH Mustaqillik Deklaratsiyasi 1990-yil 20-iyunda Oliy Kengashning II sessiyasida qabul qilingan va mustaqillik yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘lgan. 1990-yil 24-martda esa prezidentlik lavozimi ta’sis etilgan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 5-bet

FUQAROLIK JAMIYATI

T-013

+2,1 BALL

1992-yil 4-yanvarda qabul qilingan mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risidagi qonun bilan qaysi lavozim joriy etilgan?

- **A** Hokim lavozimi — TO‘G‘RI
- **B** Vitse-prezident lavozimi
- **C** Fuqarolar yig‘ini raisi lavozimi
- **D** Ijroiya qo‘mita raisi lavozimi

IZOH 1992-yil 4-yanvardagi qonun bilan mahalliy hokimiyatning vakillik va ijro organlari ajratilib, ijro hokimiyatiga boshchilik qiluvchi hokim lavozimi va hokimliklar joriy etilgan. 1992-yilda Toshkent shahri va 12 viloyatda hokimlar tayinlangan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 22-bet; “Mahalliy hokimiyat idoralarini qayta tashkil etish to‘g‘risida”gi Qonun (496-XII, 04.01.1992)

IQTISODIY ISLOHOTLAR VA IJTIMOIY SIYOSAT

T-025

+2,1 BALL

Bozor munosabatlariga o‘tishning besh tamoyiliga ko‘ra bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlar tashabbuskori deb kim belgilangan?

A Xususiy sektor

B Davlat — TO‘G‘RI

C Xalqaro moliya tashkilotlari

D Mahalliy hokimliklar

IZOH Besh tamoyil: iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohotchi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish. Ularga ko‘ra davlat bosh islohotchi va iqtisodiy o‘zgarishlar tashabbuskori hisoblangan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 36-bet

MILLATLARARO VA DINLARARO MUNOSABATLAR

T-037

+2,1 BALL

Darslikka ko‘ra, milliy-madaniy markazlar faoliyatini muvofiqlashtirib kelgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi qaysi yilda tashkil etilgan?

A 1989-yilda

B 1991-yilda

C **1992-yilda** — TO‘G‘RI

D 2017-yilda

IZOH Dastlabki milliy-madaniy markazlar 1989-yilda tuzilgan. 1992-yilda tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniyat markazi ular faoliyatini muvofiqlashtirib, tashkiliy va uslubiy yordam ko‘rsatib kelgan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 62-63-betlar

TA'LIM ISLOHOTLARI VA KADRLAR TAYYORLASH

T-049

+2,1 BALL

1997-yil 29-avgustda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri bilan birga ta’lim sohasidagi qaysi dasturiy hujjat qabul qilingan?

- **A** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi — TO‘G‘RI
- **B** Maktab ta’limini rivojlantirish davlat dasturi
- **C** Oliy ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi
- **D** Maktabgacha ta’lim tizimi konsepsiyasi

IZOH 1997-yil 29-avgustda “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilingan. Dastur uch bosqichda amalga oshirilgan: 1997-2001, 2001-2005 va 2005-yildan keyingi davr.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 72-bet

ILM-FAN, SPORT VA YOSHLAR SIYOSATI

T-061

+2,1 BALL

Prezidentning 1992-yil martdagi farmoni bilan ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi qaysi vakolatli organ tashkil etilgan?

A Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi

B Respublika ilmiy ishlanmalarni innovatsiya tijorat markazi

C **Oliy attestatsiya komissiyasi** — TO‘G‘RI

D Davlat test markazi

IZOH Prezidentning 1992-yil 31-martdagi PF-371-son farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida ilmiy kadrlar tayyorlanishini tashkil etuvchi vakolatli organ - Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tashkil etildi. Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo‘mitasi 2006-yilda tuzilgan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 81-bet; Prezidentning PF-371-son Farmoni (31.03.1992)

MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

T-073

+2,1 BALL

1991-yilda qaysi alloma tavalludining 550 yilligi keng nishonlangan?

A Mirzo Ulug‘bek

B **Alisher Navoiy** TO‘G‘RI

C Amir Temur

D Ahmad al-Farg‘oniy

IZOH 1991-yilda Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi nishonlandi: uning nomida Davlat mukofoti ta’sis etildi, Adabiyot institutiga Navoiy nomi berildi, Toshkentda Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘i paydo bo‘ldi.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 95-bet

TASHQI SIYOSAT VA IKKI TOMONLAMA MUNOSABATLAR

T-085

+2,1 BALL

“O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi qonun qaysi yilda qabul qilingan?

A 1992-yilda

B 1994-yilda

C 1996-yilda — TO‘G‘RI

D 2012-yilda

IZOH Tashqi siyosat tizimi Konstitutsiya hamda 1992 va 1994-yillardagi Tashqi ishlar vazirligiga oid qarorlar asosida shakllandi. 1996-yil 26-dekabrda tashqi siyosiy faoliyat prinsiplari haqidagi qonun qabul qilindi, 2012-yilda Konsepsiya e’lon qilindi.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 111-bet; “Tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Qonun (336-I, 26.12.1996)

KO‘P TOMONLAMA HAMKORLIK

T-097

+2,1 BALL

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qachon a’zo bo‘lib qabul qilingan?

- **A** 1992-yil 2-martda — TO‘G‘RI
- **B** 1993-yil 28-sentabrda
- **C** 1993-yil oktabrda
- **D** 1995-yil 24-oktabrda

IZOH O‘zbekiston 1992-yil 2-martda BMTga qabul qilindi; 2-mart rasmiy muhim sanalar ro‘yxatida “O‘zbekiston BMTga a’zo bo‘lgan kun” sifatida qayd etilgan. 1993-yil 28-sentabrda Islom Karimov BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida ilk bor ma’ruza qildi.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 129-bet; VM 824-son qarori (24.12.2025), 8-ilova, 13-band (2-mart)

YANGI O‘ZBEKISTON: 2017–2026

T-109

+2,1 BALL

“O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmon qachon qabul qilingan?

- **A** 2017-yil 7-fevralda — TO‘G‘RI
- **B** 2017-yil 8-sentabrda
- **C** 2019-yil 17-yanvarda
- **D** 2020-yil 2-martda

IZOH Harakatlar strategiyasi Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlangan. Bu farmon 2026-yil 17-fevraldan PF-21-son Farmon asosida o‘z kuchini yo‘qotgan va hozir tarixiy hujjat hisoblanadi.

§ Prezidentning PF-4947-son Farmoni (07.02.2017), 1-band; PF-21-son Farmoni (16.02.2026), 7-ilova

3

33 BALL · 30 SAVOL

TARBIYA

Milliy g‘oya va qadriyatlar, oila va mahalla, axloq va muomala, din va ma’rifat, media savodxonlik. Har to‘g‘ri javob — 1,1 ball.

10	100	+1,1
savol — shu sinov nashrida	savol — to‘liq nashrda	ball — har javob

TARBIYA · KONSPEKT

KONSPEKT

To‘liq nashrda har mavzu uchun konspekt bor. Bu yerda — bitta mavzu namunasi.

MILLIY G‘OYA, QADRIYATLAR VA VATAN

- Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi Qonunga ko‘ra motam munosabati bilan bayroq flagshtok uzunligining 1/3 bo‘lagicha tushirib qo‘yiladi; bayroq tasviri xalqaro musobaqalar uchun sport kiyim-boshida ishlatilishi mumkin, poyabzal, ichki kiyim va bir martalik buyumlarda esa taqiqlanadi. [B-008 B-020]
- Davlat madhiyasi ‘Serquyosh, hur o‘lkam’ misrasi bilan, naqarati ‘Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston’ bilan boshlanadi; saylov yoki referendum kuni u ovoz berish binolarida soat 8.00 da ijro etiladi, madhiya to‘g‘risidagi Qonun ijrosini ichki ishlar organlari nazorat qiladi. [B-014 B-013 B-009]
- Mehnat kodeksiga ko‘ra 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni ishlanmaydigan bayram kuni; 2020-yilgi O‘RQ-615-son Qonun bilan O‘zbek tili bayrami kuni etib belgilangan 21-oktabr esa, 14-yanvar va 18-noyabr kabi, ishlanmaydigan bayram kunlari ro‘yxatiga kirmaydi. [B-015 B-019]
- Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan ro‘yxatda 25-oktabr – Ichki ishlar organlari xodimlari kuni, 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni, 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni deb ko‘rsatilgan; 30-iyun – Yoshlar kuni, 2-iyul – Davlat gerbi qabul qilingan kun. [B-018 B-017]

- 10-sinf darsligidagi naqlga ko‘ra Vatan ostonadan boshlanadi, ostona esa darslikka ko‘ra uy, xonadon, oila demakdir; 8-sinf darsligiga ko‘ra insonning burchlari to‘rtga bo‘linadi: o‘z, oilasi, davlat va o‘zga odamlar oldidagi burch, ular ado etilsa, vatanparvarlik amalga oshadi. [B-016 B-005]
- Darsliklarda ‘Kimki yurtni sevmasa, u hech kim va hech nimani sevmaydi’ hikmati Mahmud Zamaxshariy, ‘Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar’ hikmati Amir Temur nomi bilan berilgan; Avloniy ‘Kishi yurtida sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda cho‘pon bo‘l’ maqolini keltiradi. [B-002 B-010 B-007]
- 8-sinf darsligiga ko‘ra xalqimizning eng katta boyligi – millatlararo totuvlik va hamjihatlik, millatlar totuvligi esa do‘stlikka asoslanadi; darslikda Abdulla Avloniyga nisbat berilgan fikrga ko‘ra, millat ichida birlik yo‘qolib, nifoq va adovat kuchaysa, u inqirozga yuz tutadi. [B-011 B-004]
- 8-sinf darsligiga ko‘ra o‘z Vatanini himoya qilish sharaflilar ichra sharaflisidir, ‘Jaloliddin Manguberdi’ ordeni esa 2000-yil 30-avgustda ta’sis etilgan; 10-sinf darsligiga ko‘ra Najmiddin Kubro Gurganjda ‘Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim’ deb mo‘g‘ullarga qarshi jang qilib halok bo‘lgan. [B-012 B-006 B-001]

MILLIY G‘OYA, QADRIYATLAR VA VATAN

B-001

+1,1 BALL

10-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, mo‘g‘ullar Gurganjga bostirib kirganda ‘Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim’ deb jangga chiqqan shayx kim?

A Bahouddin Naqshband

B **Najmiddin Kubro** — TO‘G‘RI

C Ahmad Yassaviy

D Abdulxoliq G‘ijduvoniy

IZOH Darslikdagi ‘Mardlik va shijoat tarixi’ matniga ko‘ra, Najmiddin Kubro shogirdlarini yurtiga jo‘natib, o‘zi Gurganjda qolgan va ‘Yo Vatan, yo sharofatli o‘lim’ deb dushmanga qarshi jang qilib halok bo‘lgan.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 8-bet

B-002

+1,1 BALL

‘Kimki yurtni sevmasa, u hech kim va hech nimani sevmaydi’ degan hikmat 8-sinf ‘Tarbiya’ darsligida kimning nomi bilan berilgan?

A Abu Rayhon Beruniy

B Abdulla Avloniy

C Alisher Navoiy

D Mahmud Zamaxshariy — TO‘G‘RI

IZOH 8-sinf darsligida bu hikmat Mahmud Zamaxshariy nomi bilan keltirilgan: kimki o‘z yurtini sevmasa, u hech kimni va hech nimani sevmaydi.

§ Tarbiya, 8-sinf (Zamin nashr, 2020), 9-bet

OILA VA MAHALLA

B-021

+1,1 BALL

10-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton va Mirzo Ulug‘bek tarbiyasi bilan kim shug‘ullangan?

A Nodirabegim

B Gulbadanbegim

C Zebunnisobegim

D Saroymulkxonim — TO‘G‘RI

IZOH Darslikka ko‘ra temuriy shahzodalarning tarbiyasi asosan ularning momolari zimmasida bo‘lgan; xususan, Saroymulkxonim Shohruh Mirzo, Muhammad Sulton, Xalil Sulton va Mirzo Ulug‘bek tarbiyasi bilan shug‘ullangan.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 10-bet

B-022

+1,1 BALL

‘Farzand nafaqat ota-ona hayotining davomi, balki ayni paytda millatning ham iqtidori, obro‘ va e’tiborini belgilaydigan zanjir halqasidir’ degan fikr Abdurauf Fitratning qaysi asaridan olingan?

A Turkiy Guliston yoxud axloq

B **Oila yoki oila boshqarish tartiblari** TO‘G‘RI

C Devonu lug‘otit turk

D Qutadg‘u bilig

IZOH 10-sinf darsligida Fitratning ‘Oila yoki oila boshqarish tartiblari’ asaridan parcha berilgan: oila va farzand masalasi erkak yo ayolning xususiy masalasi emas, farzand esa millat obro‘sini belgilaydigan zanjir halqasidir.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 10-bet

AXLOQ, ODOB VA MUOMALA

B-036

+1,1 BALL

7-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, shaxsning el-yurt orasida o‘zini tutishi, boshqalar bilan muomalasi va kundalik xulq-atvorini ifodalovchi xususiyat nima?

A iroda

B tolerantlik

C daxldorlik

D odob — TO‘G‘RI

IZOH Darslikda odob odamning jamoat, el-yurt orasida o‘zini tutishi, boshqalar bilan qay yo‘sinda muomala qilishi, bo‘sh vaqtini qanday tashkil etishi va kundalik xulq-atvorini ifodalovchi xususiyat deb ta’riflangan.

§ Tarbiya, 7-sinf (2020), 32-bet

B-037

+1,1 BALL

7-sinf ‘Tarbiya’ darsligidagi donishmand javobiga ko‘ra, inson nimasi bilan xushsurat bo‘ladi?

A kiyimi va ko‘rinishi bilan

B **gap-so‘zi va odobi bilan** TO‘G‘RI

C boyligi va martabasi bilan

D kuchi va jasorati bilan

IZOH Darslikdagi parchada donishmand insonning go‘zalligi haqidagi savolga ‘Inson gap-so‘zi va odobi bilan xushsuratdir’ deb javob beradi va muomalani insoniylikka xos yuksak xususiyat deb ataydi.

§ Tarbiya, 7-sinf (2020), 74-bet

DIN, MA'RIFAT VA BAG‘RIKENGLIK

B-056

+1,1 BALL

10-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, ‘din’ so‘zi qaysi tildan olingan va o‘zbek tilida qanday ma’noni anglatadi?

A forscha – yo‘l, odat

B **arabcha – ishonch, e’tiqod qilish** TO‘G‘RI

C lotincha – bog‘lanish, birlashish

D yunoncha – ta’limot, aqida

IZOH Darslikka ko‘ra din arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilida ishonch, e’tiqod qilish ma’nolarini anglatadi; din azaldan kishilarni yaxshilikka va ezgu ishlarga chorlab kelgan.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 45-bet

MEDIA VA AXBOROT MADANIYATI

B-071

+1,1 BALL

10-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, axborot maydonida tez-tez eshitiladigan qaysi so‘z ‘soxta’, ‘qalbaki’ degan ma’nolarni anglatadi?

A feyk — TO‘G‘RI

B trend

C kontent

D repost

IZOH Darslikka ko‘ra feyk (ing. fake) ‘soxta’, ‘qalbaki’ degani; haqiqatga o‘xshash yolg‘on xabarlar, o‘zgartirilgan fotosuratlar, montaj qilingan videoroliklar va mashhur insonlar nomidan ochilgan yolg‘on akkauntlar bunga misol bo‘ladi.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 84-bet

SHAXS KAMOLOTI: MAQSAD, IRODA, KASB

B-081

+1,1 BALL

10-sinf darsligiga ko‘ra, ichki kuch, maqsadlarni ongli belgilash hamda tashqi va ichki qiyinchiliklarni yengib, maqsad sari intilish qobiliyati nima?

A mnemonika

B **iroda** TO‘G‘RI

C intuitsiya

D empatiya

IZOH Darslikka ko‘ra iroda maqsadni ongli belgilab, qiyinchiliklarni yengib o‘tish qobiliyatidir; tashqi qiyinchiliklar ijtimoiy muhitdan keladi, ichki qiyinchiliklar esa qo‘rquv, umidsizlik, g‘azab, befarqlik, ochko‘zlik kabilardir.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 119-bet

ALLOMALAR VA MA'NAVIY MEROS

B-091

+1,1 BALL

10-sinf darsligiga ko‘ra, Samarqand muftiysi Mahmudxo‘ja Behbudiyning birinchi o‘zbek dramasi hisoblangan asari qaysi?

A Abulfayzxon

B O‘tkan kunlar

C Mehrobdan chayon

D **Padarkush** — TO‘G‘RI

IZOH Darslikka ko‘ra Behbudiyning ‘Padarkush’ asari birinchi o‘zbek dramasi bo‘lib, muallif uning janrini ‘milliy fojia’ deb atagan; asar o‘qimagan, johil va nodon bolaning o‘z otasini o‘ldirgani haqida.

§ Tarbiya, 10-sinf (RTM, 2021), 56-bet

1

HAQIQIY FORMAT: 30 + 30 + 30

SINOV IMTIHONLARI

1	15	94,5
sinov imtihoni	savol — har sinovda	ball — o‘tish chegarasi

1-SINOV IMTIHONI

15 SAVOL · JAVOB VARAQASIGA YOZING

KALIT ›

HUQUQSHUNOSLIK

1–5 · 3,1 BALL

01

JAVOB ›

Huquq nazariyasida huquq normalarining yig‘indisi qanday ataladi?

A Subyektiv huquq

B Huquqiy ong

C Huquqiy madaniyat

D Obyektiv huquq

02

JAVOB ›

Konstitutsiyaga ko‘ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar qanday maqomga ega?

A Ulardan foydalanuvchi tashkilotning mulki hisoblanadi

B Mahalliy hokimliklarning mulki hisoblanadi

C Faqat davlat mulki bo‘lib, hech qachon xususiy mulk bo‘la olmaydi

D Umummilliy boylik bo‘lib, davlat muhofazasidadir

03

JAVOB ›

Ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risidagi Qonunga ko‘ra, viloyat tarkibidagi shaharcha, qishloq yoki ovulni tuzish va tugatish qanday tartibda amalga oshiriladi?

A Vazirlar Mahkamasi taklifiga ko‘ra Oliy Majlis tomonidan

B Kadastr agentligi taklifiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan

C Tuman hokimi iltimosnomasi asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan

D Aholi roziligi asosida fuqarolar yig‘ini tomonidan

04

JAVOB ›

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari nima asosida qabul qilinadi?

A Prezident farmonlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan
B Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan
C Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan
D Konstitutsiyaviy sud qarorlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan

05

JAVOB ›

Darslikka ko‘ra, quyidagilardan qaysi biri davlatni ibtidoiy, urug‘chilik jamiyatidan ajratib turadigan belgilardan biri hisoblanadi?

A Qabila ishlarini barcha a’zolar birgalikda boshqarishi
B Soliqlar joriy qilib, o‘z budjetiga ega bo‘lishi
C Odamlarning faqat qon-qarindoshlik asosida birlashishi
D Umummajburiy qoidalarning umuman mavjud bo‘lmasligi

ENG YANGI TARIX

6–10 · 2,1 BALL

06

JAVOB ›

2017-yilgi farmonga ko‘ra fuqarolar yig‘inida jamoatchilik asosida ishlaydigan rais o‘rinbosari - qaysi masalalar bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan?

A Soliq masalalari bo‘yicha
B Yoshlar masalalari bo‘yicha
C Qurilish masalalari bo‘yicha
D Tadbirkorlik masalalari bo‘yicha

07 JAVOB ›

Darslikda siyosiy partiyalar rivojining huquqiy asoslari qatorida tilga olingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun qaysi yilda qabul qilingan?

A 1991-yilda
B 1995-yilda
C 2003-yilda
D 1996-yilda

08 JAVOB ›

1991-yil 21-avgustda Oliy Kengash Rayosati, Kompartiya Markaziy Komiteti va Vazirlar Mahkamasining qo‘shma majlisida qanday qaror qabul qilingan?

A SSSR GKChPning qonunlarga zid hujjatlari O‘zbekistonda amal qilmaydi
B 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilanadi va dam olish kuni bo‘ladi
C Respublika IIV va DXQ O‘zbekiston SSR tasarrufiga olinadi
D Respublika Kompartiyasi KPSS bilan barcha aloqalarini to‘xtatadi

09 JAVOB ›

2005-yilda ish boshlagan ikki palatali Oliy Majlis Senatining 100 nafar a’zosidan nechtasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan?

A 16 nafari
B 9 nafari
C 6 nafari
D 84 nafari

10 JAVOB ›

1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun necha moddadan iborat?

A 12 moddadan
B 15 moddadan
C 17 moddadan
D 26 moddadan

TARBIYA 11–15 · 1,1 BALL

11 JAVOB ›

“Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, Davlat bayrog‘ining enlari va hoshiyalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A yuqoridan to‘q moviy, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida qizil hoshiya
B yuqoridan to‘q yashil, oq, to‘q moviy; oq en chetlarida qizil hoshiya
C yuqoridan to‘q moviy, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida oltin hoshiya
D yuqoridan qizil, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida moviy hoshiya

12 JAVOB ›

“Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash har bir fuqaroning qanday burchi hisoblanadi?

A vatanparvarlik burchi
B xizmat burchi
C kasbiy burchi
D oilaviy burchi

13 JAVOB ›

Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan bayramlar ro‘yxatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni qaysi sanada nishonlanadi?

A 30-aprel
B 1-may
C 8-dekabr
D 10-dekabr

14 JAVOB ›

8-sinf ‘Tarbiya’ darsligidagi ‘Bilasizmi?’ ruknida keltirilgan fikrga ko‘ra, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda nima etib belgilangan?

A nodavlat tashkilotlarning ixtiyoriy tashabbusi
B mahalliy hokimliklarning ichki masalasi
C davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri
D xalqaro tashkilotlarning tavsiyaviy talabi

15 JAVOB ›

8-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, Vatanga mehr qo‘yishning darajasi va bahosi nima uchun bo‘lmaydi?

A chunki Vatan boyliklari cheksizdir
B chunki Vatan yagona, Vatan bittadir
C chunki Vatan tarixi juda qadimiydir
D chunki Vatan qonun bilan himoyalangan

1-SINOV

JAVOBLAR KALITI

Katakni bossangiz — izohli kartaga o‘tasiz.

01	D	02	D	03	C	04	C	05	B
06	B	07	D	08	A	09	A	10	C
11	A	12	A	13	C	14	C	15	B

NATIJA

FAN	TO‘G‘RI	× BALL	= BALL
Huquqshunoslik	_____	× 3,1	_____
Eng yangi tarix	_____	× 2,1	_____
Tarbiya	_____	× 1,1	_____
Jami	_____		/ 31,5

To‘liq sinovda: 90 savol, o‘tish chegarasi — 94,5 ball.

1-sinov · 01 SH-044

+3,1 BALL

Huquq nazariyasida huquq normalarining yig‘indisi qanday ataladi?

A Subyektiv huquq

B Huquqiy ong

C Huquqiy madaniyat

D Obyektiv huquq TO‘G‘RI

IZOH Darslikka ko‘ra, obyektiv huquq huquq normalarining yig‘indisidir; subyektiv huquq esa muayyan shaxs yoki guruhga tegishli huquq (masalan, uy-joyga bo‘lgan huquq) bo‘lib, obyektiv huquqsiz mavjud bo‘lmaydi.

§ O. Karimova, N. Ismatova va b. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari, 8-sinf (2019), 92-bet

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 02 SH-054

+3,1 BALL

Konstitutsiyaga ko‘ra, yer, yer osti boyliklari, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar qanday maqomga ega?

A Ulardan foydalanuvchi tashkilotning mulki hisoblanadi

B Mahalliy hokimliklarning mulki hisoblanadi

C Faqat davlat mulki bo‘lib, hech qachon xususiy mulk bo‘la olmaydi

D Umummilliy boylik bo‘lib, davlat muhofazasidadir TO‘G‘RI

IZOH 68-moddaga ko‘ra tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasida. Yer esa qonunda nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda xususiy mulk bo‘lishi ham mumkin.

§ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 68-modda

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 03 SH-059

+3,1 BALL

Ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risidagi Qonunga ko‘ra, viloyat tarkibidagi shaharcha, qishloq yoki ovulni tuzish va tugatish qanday tartibda amalga oshiriladi?

A Vazirlar Mahkamasi taklifiga ko‘ra Oliy Majlis tomonidan

B Kadastr agentligi taklifiga ko‘ra Vazirlar Mahkamasi tomonidan

C Tuman hokimi iltimosnomasi asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan TO‘G‘RI

D Aholi roziligi asosida fuqarolar yig‘ini tomonidan

IZOH 20-moddaga ko‘ra shaharchalar, qishloqlar va ovullar tegishli tuman hokimining iltimosnomasi asosida xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan tuziladi va tugatiladi. Viloyatlar va respublika bo‘ysunuvidagi shaharlarni esa Vazirlar Mahkamasi taklifiga ko‘ra Oliy Majlis tuzadi.

§ “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonun (O‘RQ-635, 28.08.2020), 16, 17, 20-moddalar

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 04 SH-049

+3,1 BALL

Konstitutsiyaga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari nima asosida qabul qilinadi?

A Prezident farmonlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan

B Vazirlar Mahkamasi qarorlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan

C Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan TO‘G‘RI

D Konstitutsiyaviy sud qarorlari asosida va ularni ijro etish yuzasidan

IZOH 16-moddaga ko‘ra, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar Konstitutsiya asosida va uni ijro etish yuzasidan qabul qilinadi, birortasi ham Konstitutsiyaning prinsip va normalariga zid bo‘lishi mumkin emas.

§ O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 16-modda

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 05 SH-039

+3,1 BALL

Darslikka ko‘ra, quyidagilardan qaysi biri davlatni ibtidoiy, urug‘chilik jamiyatidan ajratib turadigan belgilardan biri hisoblanadi?

A Qabila ishlarini barcha a’zolar birgalikda boshqarishi

B **Soliqlar joriy qilib, o‘z budjetiga ega bo‘lishi** TO‘G‘RI

C Odamlarning faqat qon-qarindoshlik asosida birlashishi

D Umummajburiy qoidalarning umuman mavjud bo‘lmasligi

IZOH Darslikda davlat belgilari: aholining muayyan hududga birlashishi, boshqaruv apparati va majburiy hokimiyat, qonunlar qabul qilish, soliqlar va o‘z budjeti, suverenitet. Qabila ishlarini hamma birgalikda boshqarishi esa ibtidoiy demokratiyaga xos.

§ O. Karimova, N. Ismatova va b. O‘zbekiston davlati va huquqi asoslari, 8-sinf (2019), 22-23-betlar

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 06 ST-021

+2,1 BALL

2017-yilgi farmonga ko‘ra fuqarolar yig‘inida jamoatchilik asosida ishlaydigan rais o‘rinbosari - qaysi masalalar bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan?

A Soliq masalalari bo‘yicha

B **Yoshlar masalalari bo‘yicha** TO‘G‘RI

C Qurilish masalalari bo‘yicha

D Tadbirkorlik masalalari bo‘yicha

IZOH Mahalla institutini takomillashtirish to‘g‘risidagi 2017-yil 3-fevraldagi farmon bilan fuqarolar yig‘ini raisining o‘rinbosari - yoshlar masalalari bo‘yicha maslahatchi lavozimi joriy etilgan, u jamoatchilik asosida faoliyat yuritadi.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 25-bet; Prezidentning PF-4944-son Farmoni (03.02.2017), 2-band (17.03.2021 dan kuchini yo‘qotgan)

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 07 ST-016

+2,1 BALL

Darslikda siyosiy partiyalar rivojining huquqiy asoslari qatorida tilga olingan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun qaysi yilda qabul qilingan?

A 1991-yilda

B 1995-yilda

C 2003-yilda

D 1996-yilda TO‘G‘RI

IZOH “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi 337-I-son Qonun 1996-yil 26-dekabrda qabul qilinib, 1997-yil 7-yanvardan kuchga kirgan. Darslikda u Konstitutsiya va partiyalarni moliyalashtirish haqidagi qonun bilan birga partiyalar faoliyatining huquqiy asosi sifatida keltirilgan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 28-bet; “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi Qonun (337-I, 26.12.1996)

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 08 ST-001

+2,1 BALL

1991-yil 21-avgustda Oliy Kengash Rayosati, Kompartiya Markaziy Komiteti va Vazirlar Mahkamasining qo‘shma majlisida qanday qaror qabul qilingan?

A SSSR GKChPning qonunlarga zid hujjatlari O‘zbekistonda amal qilmaydi — TO‘G‘RI

B 1-sentabr Mustaqillik kuni deb belgilanadi va dam olish kuni bo‘ladi

C Respublika IIV va DXQ O‘zbekiston SSR tasarrufiga olinadi

D Respublika Kompartiyasi KPSS bilan barcha aloqalarini to‘xtatadi

IZOH 21-avgustdagi qo‘shma majlis GKChPning O‘zbekiston Konstitutsiyasi va qonunlariga zid hujjatlari respublika hududida amal qilmasligini belgiladi. IIV va DXQ 25-avgustdagi farmon bilan tasarrufga olingan, Kompartiya KPSS bilan aloqani 28-avgustda uzgan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 5-6-betlar

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 09 ST-011

+2,1 BALL

2005-yilda ish boshlagan ikki palatali Oliy Majlis Senatining 100 nafar a’zosidan nechtasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tayinlangan?

A 16 nafari — TO‘G‘RI

B 9 nafari

C 6 nafari

D 84 nafari

IZOH 2005-yilda ish boshlagan Senatga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan 6 nafardan jami 84 a’zo saylangan, 16 nafarini esa Prezident tayinlagan. 2023-yilgi Konstitutsiyaga ko‘ra Senatning 9 nafar a’zosini Prezident tayinlaydi.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 14-bet; Konstitutsiya (1992), 77-modda (27.01.2005 holatiga); O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), 92-modda

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 10 ST-002

+2,1 BALL

1991-yil 31-avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun necha moddadan iborat?

A 12 moddadan

B 15 moddadan

C **17 moddadan** TO‘G‘RI

D 26 moddadan

IZOH Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun 17 moddadan iborat bo‘lib, suveren O‘zbekiston Respublikasining asosiy belgilarini aniqlab bergan. Shu sessiyada Oliy Kengashning Davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi Bayonoti ham qabul qilingan.

§ N. Jo‘rayev, A. Zamonov. O‘zbekiston tarixi (Mustaqillik davri), 11-sinf (2018), 7-8-betlar; “Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi Qonun (336-XII, 31.08.1991)

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 11 SB-016

+1,1 BALL

“Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, Davlat bayrog‘ining enlari va hoshiyalari qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

A yuqoridan to‘q moviy, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida qizil hoshiya — TO‘G‘RI

B yuqoridan to‘q yashil, oq, to‘q moviy; oq en chetlarida qizil hoshiya

C yuqoridan to‘q moviy, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida oltin hoshiya

D yuqoridan qizil, oq, to‘q yashil; oq en chetlarida moviy hoshiya

IZOH Qonunning 4-moddasiga ko‘ra bayroq butun uzunligi bo‘ylab o‘tgan to‘q moviy, oq va to‘q yashil uch endan iborat; yuqoridagi moviy enda yangi oy va yulduzlar, o‘rtadagi oq en chetlarida qizil hoshiyalar bor.

§ “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi Qonun (407-XII, 18.11.1991), 4-modda

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 12 SB-021

+1,1 BALL

“Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra, Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash har bir fuqaroning qanday burchi hisoblanadi?

A vatanparvarlik burchi — TO‘G‘RI

B xizmat burchi

C kasbiy burchi

D oilaviy burchi

IZOH Qonunning 2-moddasiga ko‘ra Davlat madhiyasi davlat suverenitetining ramzi bo‘lib, unga zo‘r ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

§ “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun (768-XII, 10.12.1992), 2-modda

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 13 SB-025

+1,1 BALL

Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan bayramlar ro‘yxatiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni qaysi sanada nishonlanadi?

A 30-aprel

B 1-may

C 8-dekabr TO‘G‘RI

D 10-dekabr

IZOH 824-son qarorga 8-ilovada Konstitutsiya kuni 8-dekabr sanasi bilan umumxalq bayramlari qatorida ko‘rsatilgan; 10-dekabr – Davlat madhiyasi qabul qilingan kun, 2023-yil 30-aprelda esa yangi tahrirdagi Konstitutsiya referendumda qabul qilingan.

§ Vazirlar Mahkamasining 824-son qarori (24.12.2025), 8-ilova

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 14 SB-011

+1,1 BALL

8-sinf ‘Tarbiya’ darsligidagi ‘Bilasizmi?’ ruknida keltirilgan fikrga ko‘ra, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash O‘zbekistonda nima etib belgilangan?

A nodavlat tashkilotlarning ixtiyoriy tashabbusi

B mahalliy hokimliklarning ichki masalasi

C davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri — TO‘G‘RI

D xalqaro tashkilotlarning tavsiyaviy talabi

IZOH Darslikda keltirilgan Shavkat Mirziyoyev fikriga ko‘ra, millatlararo va konfessiyalararo hamjihatlikni mustahkamlash, barchaga millati va e’tiqodidan qat’i nazar teng huquq va imkoniyat yaratish davlat siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri.

§ Tarbiya, 8-sinf (Zamin nashr, 2020), 13-bet

‹ SAVOLGA QAYTISH

1-sinov · 15 SB-006

+1,1 BALL

8-sinf ‘Tarbiya’ darsligiga ko‘ra, Vatanga mehr qo‘yishning darajasi va bahosi nima uchun bo‘lmaydi?

A chunki Vatan boyliklari cheksizdir

B chunki Vatan yagona, Vatan bittadir TO‘G‘RI

C chunki Vatan tarixi juda qadimiydir

D chunki Vatan qonun bilan himoyalangan

IZOH Darslikdagi hikmatga ko‘ra, Vatanni biroz kam yoki biroz ortiq sevib bo‘lmaydi, ya’ni unga bo‘lgan mehrning darajasi va bahosi yo‘q, chunki Vatan yagona, Vatan bittadir.

§ Tarbiya, 8-sinf (Zamin nashr, 2020), 11-bet

‹ SAVOLGA QAYTISH

KEYINGI QADAM

TO‘LIQ NASHRDA

Sinov nashri yoqqan bo‘lsa — to‘liq kitobda xuddi shu formatda hammasi bor.

200 **HUQUQSHUNOSLIK**
mavzular bo‘yicha savollar — modda bilan izoh

150 **ENG YANGI TARIX**
darslik sahifasi bilan izoh

100 **TARBIYA**
darslik sahifasi bilan izoh

5 **SINOV IMTIHONI**
har biri 90 savol — haqiqiy formatda, kalit va ball jadvali bilan

To‘liq nashr — soff.uz saytidagi Kadextar Studio sahifasida.



KADEXTAR STUDIO

Mustaqil tayyorgarlik qo‘llanmasi. Ichki ishlar vazirligi yoki Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan chiqarilmagan; savollar — mualliflik mashqlari, rasmiy test savollari emas.

Ma’lumotlar 2026-yil noyabr holatiga. Savollar bo‘lsa — soff chatida yozing.

© 2026 KADEXTAR STUDIO